

## IKKI DO‘ST

Bor ekan-da, yo‘q ekan, Tanjona degan go‘zal bir saltanat bo‘lgan ekan. U yerda oqil va odil Yurakshoh ko‘pni ko‘rgan do‘sti Donish boboning maslahatlari bilan davlatni boshqarar ekan. Shu tufayli saltanat gullab, xalq farovon yashar ekan.

Tanjonaga g‘araz niyatli dushmanlar ko‘p marta hujum qilgan bo‘lsa-da, hech kim uni zabt eta olmagan ekan.

Kunlardan bir kuni nima ham bo‘libdi-yu, Yurakshoh va Donish bobo o‘rtasida ola mushuk oralab, janjallashib qolishibdi.

– Men o‘zim ham saltanatni idora eta olaman, – debdi Donish bobo. – Shunday ekan, nega endi sizga bo‘ysunishim kerak?

– Nima dedingiz? – debdi Yurakshoh fe‘liga mos kelmaydigan qo‘rslik bilan. – Tanjonani boshqarmoqchimisiz?

Bu bilan mendan ko‘ra aqlli ekanligingizni ko‘rsatmoqchimisiz?

– Bo‘lmasam-chi, – debdi Donish bobo, – mening aqlli maslahatlarimsiz Tanjona allaqachon barbod bo‘lgan bo‘lar edi. Ortiq bu yerda qolmayman. Donolar vodiysiga ketib, u yerda Donishshoh bo‘lib taxtga chiqaman. Tanjonaning yarmi endi mening hukmimda bo‘ladi...

Yurakshoh do‘stini bu fikrdan qaytarish o‘rniga jahl bilan uni saroydan haydab yuboribdi.

Shunday qilib saltanat ikkiga bo‘linib qolibdi.

Donishshoh sobiq do‘stining raqibiga aylanibdi va jiyani tadbirkor Miyacha, nabiralari chaqqon Asabxonlar bilan yangi tadbirlar tuza boshlabdi.

Yurakshoh avvaliga juda xursand bo‘libdi. Chunki, Donish bobo donishmandman deb ba‘zan haddidan oshib, keragidan ortiq nasihatlar qilib yuborar ekan-da!

Ammo hech qancha o‘tmay, u charchay boshlabdi. Mustaqil fikr qabul qilish uning uchun juda qiyin kecha boshlabdi. Chorasiz qolgan Yurakshoh Jigar mirzodan yordam so‘rashga ahd qilibdi:


– Ko‘rib turganingizday, maslahatchisiz qoldim. Davlat ishlarini boshqarishda yordam bera olasizmi? Menga dono fikrlar berib tursangiz bo‘ldi!



Jigar Mirzo birpas o‘yga tolibdi, so‘ng asta bosh chayqab:

– Jon deb Donish boboning o‘rnini egallar edim, ammo bu ish qo‘limdan kelmaydi deb qo‘rqaman, – debdi. – Do‘stingizning ketib qolgani yomon bo‘ldi-da! Bir saltanatda ikki hukmdor bo‘lishi yaxshi

emas. Qarang, sanoqli kunlar ichida Tanjonadan fayz ketdi. Men yaxshisi saltanat ahli bilan uchrashib, Donish boboni saroyga qaytarishga harakat qilaman.



Yurakshoh indamabdi, chunki chorasiz qolgan ekan.

Jigar Mirzo Donish boboga murojaat tayyorlab, bir qog‘ozga tushiribdi-da, yo‘lga tushibdi. Avval egizak Buyrakjonlar bilan uchrashibdi.

– Ha, yaxshi ish bo‘lmadi, – debdi egizaklar uning mud-daosini tinglagach. – Biz ham kimga bo‘ysunishga hayronmiz. Yurakshohga sodiq qolaylik desak, Donish boboning aqlli tadbirlarisiz ishlay olmaymiz. Bilasiz, biz Tanjonadan salomatlik uchun zaharli moddalarni olib chiqib ketamiz. Nima foyda-yu, nima zarar ekanini esa, faqat Donish bobo va uning yordamchilari bilishadi. Ularning aytganini qilmasak tanjonaliklar zaharlanib qolishi mumkin.

– Tushunib turibman, – xo‘rsinibdi Jigar Mirzo, – men ham Donish boboning donoligiga tan beraman. Keling, mana bu murojaatnomaga imzo cheking, ularni yarashtirib qo‘yamiz.

Jigar Mirzo yo‘lda ketayotganda opa-singil O‘pkaxonlar to‘qnash kelibdi. Ular negadir yig‘lab o‘tirishgan ekan.

– Nega yig‘layapsiz? – deb so‘rabdi Jigar Mirzo ularga yaqinlashib.

– Biz Oshqozon xola bilan uch kundan buyon torti-shamiz, – deyishibdi opa-singil. – Donish bobo borligida ular me‘yorini bilib taom tayyorlardilar. Hozir keragidan ortiqcha mahsulotlarni hazm qila olmay o‘zlarini ham, boshqalarni ham qiynab yuborishdi. Qarang, tanamizni

ortiqcha yog‘ qoplab, semirib ketayapmiz. Bunaqada ishlab bo‘ladimi? Biz havoni tozalab, qonni sof kislorod bilan ta‘minlab turishimiz lozim. Tanbal bo‘lib qolayapmiz. Ayting, Oshqozon xola me‘yorni bilsinlar!

Jigar Mirzo Oshqozon xolanikiga yo‘l olibdi.

– Nima qilay? – debdi Oshqozon xola Jigar Mirzoning o‘zi haqidagi gaplarini tinglab. – Yurakshohning yaqin qo‘shnisi bo‘lganim uchun, Donish boboga bo‘ysuna olmayman! Qo‘shnichilik ming yilchilik, o‘rgilay!

Jigar Mirzo Oshqozon xolaga noto‘g‘ri yo‘l tutayotganini tushuntirganicha Yurakshoh va Donish boboni yarashtirib qo‘yish haqidagi murojaatnomaga imzo chektiribdi.

Shundan so‘ng u yana ko‘p fuqarolar bilan uchrashibdi.

Katta-kichik fuqarolarning barchasi hozirgi vaziyatdan juda qiynalayotganini aytishibdi. Hattoki, Donolar vodiysiga yaqin yashaydigan Chehraoy, Burunxo‘ja, Bo‘yin Mirzo, Quloqlar, Tishchalar va Zabonbeklar ham Tanjonaning bo‘linishiga qarshi ekanlar.

Donish boboga atalgan murojaatnoma tayyor bo‘lguncha, Jigar Mirzo juda holdan toyibdi.

Bu vaqtda tanjonaliklarning tang ahvolidan atrofdagi dushmanlar g‘imirlab qolib, hujum qilish uchun qulay fursat qidirayotgan ekanlar. Turli kasalliklar balo-qazoday yopirilib Tanjonani qurshay boshlabdilar.

Donish bobo huzuriga Jigar Mirzo ayni paytda kelgan ekan.

– Nima qilib qo‘ydim-a, – debdi murojaatnomani o‘qib chiqqach Donish bobo. – Sodiq do‘stim bilan arzimagan narsa ustida arazlashib o‘tirsam, g‘animlar bu vaziyatdan albatta foydalanmoqchi bo‘lishadi-da. Zudlik bilan uning oldiga qaytishim kerak. Asabxonlardan eshitdim, Yurakshoh ham pushaymon ekan. Ikkimizning arazimiz, butun bir saltanatning tanazzuliga sabab bo‘layapti, axir.

Jiyani Miyacha ham Donish boboning bu qaroridan xursand bo'libdi, Jigar Mirzo hamrohligida saroyga kuzatib qo'yibdi.

Ikki do'st yarashib olgach, Tanjona yana birlashibdi.

Fuqarolar ahilligi va totuvligi saltanat ravnaqiga ravnaq qo'shibdi. Ochko'z dushmanlar zabt etib bo'lmas Tanjona chegaralarini tark etishibdi.







## TISHLANGAN TIRNOQCHALAR

Bor ekan-da, yo‘q ekan, aka-uka tirnoqchalar bo‘lgan ekan. Ular juda ahil-inoq ekan. Ularni Qaychi xola juda yaxshi ko‘rar ekan. Nega desangiz, Qaychi xola tirnoqchalarning tozaligi, ozodaligi va eng muhimi o‘sib ketmasligini doimo nazorat qilib, pardoqlab turar ekan. Ammo tirnoqchalar Qaychi xolaning tashrifidan har doim ham xursand bo‘lavermas ekanlar.

– Uf, Qaychi xola namuncha bizni o‘sib ketmanglar deb tergayvermasalar, – deya bir-birlariga hasrat qilishibdi.

Keyin ular yangi pardoqchi topib, ko‘ngillari tusaganday pardoqlanmoqchi bo‘lishibdi.

Tirnoqchalar e‘lon yozib yangi pardoqchi qidira boshlashibdi.

Bir kuni Qaychi xola kelsa tirnoqchalar xursand bo‘lib boshlarini ko‘rsatishibdi.

– Sizga ish qolmadi Qaychi xola, – debdi ulardan biri.

– Nega unday deyapsiz? – hayron bo‘pti Qaychi xola.

– Dilshod degan bola bor-ku, o‘sha bizlarni zamonaviy qilib qo‘ydi, – debdi ikkinchi tirnoqcha.

– Yana-chi, u o‘sgan qismimizni tishlab ishtaha bilan yeb qo‘ydi, – deya maqtanibdi boshqasi.

Qaychi xola qarasa, barcha tirnoqchalarning boshi g'adir-budir qilib tishlangan ekan.

U oynaga qarab o'z akslaridan mamnun turgan tirnoqchalarga qarab:

– Dilshod juda yomon ish qilibdi, – deganiga afsuslanib bosh chayqabdi. –

Sizlarni zamonaviy qilaman deb, o'z salomatligiga ziyon yetkazganini bilmabdi-da! Axir uning oshqozoni og'rishi mumkin! Tirnoqchalarni ham yeb bo'ladimi? Qolaversa bugun bo'lmasa ertaga sizlarga ham mikroba tushib yara tushib ketishi mumkin.

Tirnoqchalar Qaychi xolaning kuyunib aytgan so'zlariga e'tibor berishmabdi.

– Boshqa tirnoqchalarga boravering, – deyishibdi. – Biz endi faqat Dilshod bilan do'st bo'lamiz.

Qaychi xola ularga gap tushuntira olmay ketib qolibdi.

Bir kuni Qaychi xola ularning yig'lab o'tirishgani ustidan chiqib qolibdi.

– Sizlarga nima bo'ldi? – deb so'rabdi u ahvolni tushunib turgan bo'lsa ham.

Tirnoqchalar battar dod solganicha boshlarini ko'rsatishibdi.

– Manavini qarang, Dilshod bizlarni tishlayverib yara qilib tashladi.

Qaychi xola tishlangan va mikroblardan qizarib, shishib ketgan tirnoqchalarga juda rahmi kelibdi. Darhol shifokorni chaqiribdi.



Tirnoqchalar achchiq malhamlarni tatib, Qaychi xolani boshqa xafa qilmaslikka so'z berishibdi. Dilshod esa og'rigan oshqozoni va malham surilgan tirnoqchalarga qarab ulardan astoydil kechirim so'rabdi va hech qachon ularni tishlamaslikka so'z beribdi.





## VITAMINLI BO‘G‘IRSOQ

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, yaqin o‘tgan zamonda, o‘zimizning tomonda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Bir kuni chol bozorga borib bir qop un ko‘tarib kelibdi. Ammo bu un oddiy bo‘lmay, balki sehri ekan. Uning sehri tarkibiga shifobaxsh vitamin – temir moddasi qo‘shilganligida bo‘lib, ming bir dardga davo ekan.

– Kampir, – debdi chol, – temirli undan bir bo‘g‘irsoq pishirib ber. Hali zamon nabiralarimiz mehmonga kelib qolishsa, maza qilib bo‘g‘irsoq yeymiz.

– Xo‘p bo‘ladi, – deb, kampir bo‘g‘irsoq pishirishga unnab ketibdi.

Sehri undan xamir qoribdi. Xamirdan dum-dumaloq bo‘g‘irsoq yasab, tovada pishiribdi. So‘ngra uni sovutish uchun deraza tokchasiga qo‘yibdi. Bo‘g‘irsoq u yerda o‘tirib zerikib qolibdi:

– Chol bilan kampirning nabiralari qachon yetib keli-shadi, undan ko‘ra o‘zim ularning yo‘llariga peshvoz chiqa-man, – deb sakrab derazadan tashqariga tushibdi va o‘rmon tarafga qarab dumalab ketibdi.



Bo'g'irsoqning yo'lidan quyoncha chiqib qolibdi. Shal-pangquloq quyoncha og'zini katta ochgancha baqirib yig'layotgan ekan.

Bo'g'irsoq unga qarab:

– Quyoncha, quyoncha nega yig'layapsan? – deb so'rabdi.

– Aslida «Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq seni yeyman» deyishim kerak edi. Ammo seni yeya olmayman, chunki kasalman! – debdi.

Bo'g'irsoq:

– Qayering og'riyapti shal-pangquloqvoy?

Quyoncha og'ir xo'rsinib, dardini to'kib solibdi:

– Bilasanmi Bo'g'irsoq,  
Ahvolim juda chatoq.  
Bir necha oydan buyon,  
Ta'm bilmayman men mutloq.  
Lazzatli taomlarni,  
Sabzi, karamjonlarni,  
Hatto seni yesam ham,  
Mazang aslo bilmayman.  
Qornim ochib ketgan-u,  
Ishtaham yo'q, Bo'g'irsoq.  
Shuning uchun qo'rqmasdan,  
Yo'lingdan qolma o'rtoq.

Uni tinglagan Bo'g'irsoq shunday debdi:

Shal-pangquloq quyoncha,  
Qorday oppoq quyoncha.  
Gaplarimga quloq sol,  
Juda yig'loq Quyoncha.  
Men temirli Bo'g'irsoq,  
Men sehrli Bo'g'irsoq.



Senga nima bo‘lganin  
Aytib beraman o‘rtoq.  
Sening qoning kamaygan,  
Gapimga quloq solgin.  
Temirli bo‘g‘irsoqman,  
Bir bo‘lagim yeb olgin.



Shunday deb bo‘g‘irsoq bir  
bo‘lagini Quyunchaga sindirib  
beribdi-da, yo‘lida davom etibdi.

O‘rmon ichida dumalab ketayotlsa, yig‘lab turgan  
Bo‘rivoyga duch kelibdi. Bo‘g‘irsoq: «Bo‘rivoy, senga nima  
bo‘ldi?» deb so‘ragan ekan, u yig‘lab javob beribdi:

– Bilasanmi Bo‘g‘irsoq,  
Ahvolim juda chatoq.  
Bir necha oydan buyon.  
Ko‘z yosh to‘kaman shundoq.  
Tez yugursam charchayman,  
Darsda faqat uxlayman.  
Besh baho olgim kelar,  
Meni holsizlik yengar.  
Qornim ochib ketgan-u,  
Ishtaham yo‘q, Bo‘g‘irsoq.  
Shuning uchun qo‘rqmasdan,  
Yo‘lingdan qolma o‘rtoq.

Bo‘g‘irsoq:

Yig‘lamagin Bo‘rivoy,  
Bilaman ahvoling voy,  
Ammo menga ishonsang,  
Tuzalasan hoynahoy.

Sening qoning kamaygan,  
Gapimga quloq solgin.  
Temirli bo‘g‘irsoqman,  
Bir bo‘lagim yeb olgin.

Shunday deb Bo‘g‘irsoq Bo‘rivoyga ham bir bo‘lagini ushatib berib, yo‘lida davom etibdi. Yo‘lda bahaybat Ayiqpolvonga duch kelibdi. Ayiqpolvon tirnoqlariga qarab yig‘lab o‘tirgan ekan. Bo‘g‘irsoq: «Polvon, senga nima bo‘ldi?» deb so‘ragan ekan, u yig‘lab javob beribdi:

Oq tirnoqli Ayiqman,  
Hayvonotbog‘da yashardim.  
Bolajonlar kelishsa,  
Zo‘r tomosha boshlardim.  
Bir necha oydan buyon,  
Ochilmaydi qovog‘im,  
Chunki sinib ketyapti,  
Oppoqqina tirnog‘im.  
Qornim ochib ketgan-u,  
Ishtaham yo‘q, Bo‘g‘irsoq.  
Shuning uchun qo‘rqmasdan,  
Yo‘lingdan qolma o‘rtoq.

Ayiqpolvonning arzini tinglagan Bo‘g‘irsoq, uni yupatib shunday debdi:

– Ko‘p yig‘lama, Ayiqvoy,  
Bilaman, ahvoling voy,  
Ammo menga ishonsang,  
Tuzalasan hoynahoy.



Sening qoning kamaygan,  
Gapimga quloq solgin.  
Temirli bo‘g‘irsoqman,  
Bir bo‘lagim yeb olgin.

Tirnoqlari sinib ketayotgan Ayiqpolvonga ham bir bo‘lagini ushatib berib Bo‘g‘irsoq yo‘lida davom etibdi. Yo‘lda qopqonga tushib qolgan Tulkixonga duch kelibdi.

– Tulkixon, senga nima bo‘ldi? Qanday qilib qopqonga tushib qolding? – deb so‘rabdi Bo‘g‘irsoq.

Uning savoliga tulki yig‘lab javob beribdi:

– Juda shaddod edim men,  
Erka, ozod edim men.  
Eh-he qancha shirintoy,  
Bo‘g‘irsoqni yedim men.  
Nima bo‘ldi bilmadim,  
Xotiram pand beryapti.  
Boshimda kimdir tinmay,  
«Sen Quyonsan!» deyapti.  
Eslolmayman gohida,  
Tulki yo Quyonligim,  
Ovchilarga qo‘l keldi,  
Bu parishonholligim.  
Avval qayda qopqon bor,  
Hammasin bilar edim,  
Butun o‘rmon ahliga,  
Xabarin berar edim.  
Hozir qopqonga tushib,  
O‘zim nochor yig‘layman.  
Bor ketaver, bo‘g‘irsoq,  
Bugun seni yemayman.



Bo'g'irsoq:

Ko'p yig'lama, ayyoroy,  
Bilaman ahvoling voy,  
Ammo menga ishonsang,  
Tuzalasan hoynahoy.  
Sening qoning kamaygan,  
Gapimga quloq solgin.  
Temirli bo'g'irsoqman,  
Bir bo'lagim yeb olgin!

Tulki temirli bo'g'irsoqdan bir bo'lak yegach, harakat qilib, qopqondan qutulibdi. Chunki bo'g'irsoqning sehrli kuchi ham bor ekan-da.

To'rt tomonidan ushatilgan Bo'g'irsoq axiyri bolalarga duch kelibdi. Ular holdan toyib, charchab kelishayotgan ekan, Bo'g'irsoq:

– Men temirli Bo'g'irsoq,  
Men sehrli Bo'g'irsoq.  
Sizlarni kutayin deb,  
Yo'lga tushgandim biroq.  
Yo'lda uchrab o'rmonlik,  
Kamqon o'rtoqchalarim.  
Bir-bir ushatib berdim,  
Shirin bo'lakehalarim.

Bo'g'irsoq barcha bo'lgan voqealarni bolalarga gapirib beribdi. Uni tinglagan bolalar:

– Bizdan qochib ketay deb,  
Ovora bo'lma o'rtoq.




Qornimiz ochib ketgan,  
Xafa bo'lma, bo'g'irsoq! – deyishibdi.

Shunda Bo'g'irsoq kulib ularga javob beribdi:

Nega qochayin axir,  
Kuch-quvvatga to'laman.  
Agar meni yesangiz,  
Faqat xursand bo'laman.

Buni eshitgan bolalar bo'g'irsoqni bir zumda yeb  
qo'yishibdi. Shu payt mo'jiza yuz beribdi. Bolajonlarning  
bilaklariga kuch, tanlariga darmon kirib, quvonib ketishibdi.





## PULTIKVOY VA SOTKAJON

Ertakchi:

Bor ekan-da, yo‘q ekan,  
Och ekan-da, to‘q ekan.  
Bilmam qaysi tomonda,  
Toshkent yo Andijonda,  
Ertagim bo‘lib o‘tar,  
O‘zimizning zamonda.  
Yashar ekan ikki do‘st,  
Gap uqmas quloqlar.  
Bir-birin ko‘rmasa-da,  
Juda qalin o‘rtoqlar.  
Bir kun bahs boylashishdi,  
Egizak ko‘zlar bilan.

Quloqlar:

“Siz zo‘rmi yo biz zo‘rmi”,  
Bellashing bizlar bilan.



Ertakchi:

Ko‘zlar ham anoyimas,  
Bellashmoqchi bo‘lishdi.  
Gap uqmas quloqlarni,  
Sinamoqchi bo‘lishdi.

Ko‘zlar:

Xo‘sh gap uqmas quloqlar,  
Qanday bo‘lar bu sinov.  
Musobaqa shartlarin,  
Tushuntiring siz darrov.  
Siz aslo ko‘rolmaysiz,  
Na yaqin, na olisni.  
Bizlar esa hech qachon,  
Eshitolmaymiz sizni.

Quloqlar :

Eh namuncha cho‘zasiz,  
Bahona bitar qachon?  
Bizlar tuzgan reja bor,  
Qani Pultik, Sotkajon.

Ertakchi:

Darhol chopar jo‘nadi,  
Pultik va Sotkajonga.  
Ikki do‘st yetib keldi,  
Shosha-pisha mehmonga.

Quloqlar der, shart shunday,  
Pultikvoyni olasiz,

Qancha vaqt tanafussiz.  
Televizor ko'rasiz.

Bizlar esa uyali,  
Telefonni olamiz.  
Uzoq-yaqin do'stlarni,  
Yana gapga solamiz.

Ko'ramiz, yo siz yo biz,  
Xafachilik bilmaymiz.  
G'olib bo'lsa kim agar,  
Muzqaymoq-la siylaymiz.

### Ertakchi:

Rozi bo'ldi ko'zlar ham,  
Musobaqa avjida.  
Uch-to'rt soat zerikmay,  
Vaqt o'tmadi behuda.

Tugmachali Pultikvoy,  
Multfilmni ayamas,  
Hatto televizorni,  
Charchashiga qaramas.

Sotkajon-chi soatlab,  
Bulbulday sayrab turdi.  
Yoqimli "Allo"lardan,  
Quloqlar yayrab turdi.

Tomoshani eng zo'ri,  
Biroz keyin boshlandi.  
Quloqlar tom bitdi-yu,  
Ko'zlar og'rib yoshlandi.



Quloqlar “Oh-vohidan”,  
Bosh ham garang, “Dod” dedi.  
Ko‘zlar esa qo‘llarga,  
“Pultikni yo‘qot!” dedi.

Oxir og‘riq kuchayib,  
To‘xtadi musobaqa.  
Kel deganda “Tez yordam”,  
Kelar misli toshbaqa.

Achchiq-achchiq dorilar,  
Kasallarga ravodir.  
Gap uqmas quloqlarga,  
Bu eng yaxshi davodir.

Ko‘zlar ham ko‘p pushaymon,  
Dorilardan nolishdi.  
Biroz muddat hattoki,  
Yaxshi ko‘rmay qolishdi.

Ko‘zlar der, tavba qildik,  
Va‘damizdan kechmaymiz.  
Gap uqmas quloqlarning  
Nayrangiga uchmaymiz.

Kitob o‘qish, yozishga,  
Bizlar kerakmiz juda.  
Soatlab multfilmlar,  
Ko‘rolmaymiz biz kunda!

Quloqlar:

Gap uqmas quloqlar deb,  
Xafa qilmang bizlarni.





Qarang biz ham dog‘damiz,  
Eshitolmay so‘zlarni.

Biz ham achchiq doridan,  
Ta‘tib ko‘rib “Dod” dedik.  
Bekorchi qo‘ng‘iroqlar,  
Bizlar uchun yot dedik.

Biz ertaklar va shirin,  
Ovozlarga oshiqmiz.  
Darsni yaxshi anglashga,  
Ustozlarga ochiqmiz.

Ertakchi:

Bizning asrimiz deya,  
Texnikaga zo‘r bermang.  
Sog‘lik uchun zararli,  
Ko‘p ishlarga yo‘l bermang.

Pultik va Sotkajonlar,  
Yordamchilar beminnat.  
Ularni faqatgina,  
To‘g‘ri ishlatmoq rohat!

Hamma narsa yaxshidir,  
Me‘yorini bilsangiz.  
Vaqtida orom olib,  
Vaqtida dars qilsangiz.

Sog‘lom bo‘ling, baquvvat  
Bo‘ladi tani-jonlar!





## ICHBURUG‘

Saratonda, mevalar,  
G‘arq pishgan yoz oyida.  
Ichburug‘ o‘tirolmay,  
Qolibdi o‘z joyida.

– G‘uldir-g‘uldir, bu nima  
Yotamanmi burchakda.  
Ov mavsumi boshlandi,  
Mening joyim ichakda.

Qozondan oshqozonga,  
Tushsam qalbim quvnaydi.  
Eh-he qancha bolalar,  
Qo‘llarini yuvmaydi.

Topolmaysiz qidirib,  
O‘zim sirim ochaman.  
Zarrabinsiz ko‘rmaysiz,  
Kichkina tayoqchaman.

Oziq-ovqat, o‘yinchoq,  
Barchasida hozirman.  
Yuqumli kasalliklar  
Ichra katta nozirman.



Qaynagan suv dushmanim,  
Sovundan ham qochaman.  
Gap uqmas bolalarga,  
Butun mehrim sochaman.

Yopishvolsam bo'lgani,  
Hunarimni bilasiz.  
Xoli joyga yugurib,  
Rosa maza qilasiz.

Qolib ketar o'yinlar,  
Ta'tillar ham tatimas.  
– Qorningizni changallang,  
Ichburug' anoyimas!

Shahar katta, bozor ko'p,  
O'lmayman bir kechada.  
Ba'zi bola mevani,  
Yuvmasdan yer ko'chada.

– Voy-bo' yana kim bo'ldi,  
Olmalarni chayqagan.  
Berkinib olgandim-ku,  
Kimdir meni payqagan...

Uh! Bu safar bo'lmadi,  
Uchrab qoldim botirga.  
Oqizib yubordi-ku,  
Meni sassiq quvurga.

Mayli, mening do'stlarim,  
Qolib ketdi tepada.  
Istasangiz topasiz,  
Yuvilmagan mevada!



## TISHCHALAR

Ikki qator askarday turar oppoq tishchalar,  
Jag' polvonda tizilib, sog'lom, do'mboq tishchalar.

Foydali taom kelsa, chaynab berarlar albat,  
Oshqozon xola uchun ko'makchilar – beminnat.

Shokolad-u, xo'rozqand duch kelsa tishchalarga,  
Uchrab qolarlar albat zalvorli mushtchalarga.

Shirinlik haddan ziyod bo'lsa yomon bolalar,  
Emal qobiq buzilib, qaqshar asab tolalar.

Yong'oqpolvon arzanda, tishchalarda chaqilsa,  
Hayron bo'lmang tishchalar "Voy-dod" deya baqirsa.

Muzday, qaynoq va qattiq taomlar ham zarardir,  
Tomoq polvon uchun ham bu qaqshatgich xabardir.

Shuning uchun askarday doim hushyor tishchalar,  
O'tolmasin der hattoki chala pishgan go'shtchalar.

Tishchalar der: "Sog' bo'lsak jilmayasiz har doim"  
Sizning erka tabassum qarang qanday muloyim.